

"Nurli maskan" maktablarida yangi o'quv yilida tashkil etiladigan ishlar:

850 ta
qo'shimcha o'quv xonalari

1200 ta
yotoqxona

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

25 (16478)
2022-yil, 30-aprel
shanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Yoshlar
siyosati
3-bet

Yagona
reyting tizimi
joriy etiladi

Mahallada yoshlar
yetakchisi
4-bet

Suvsiz
yerga suv
chiqarildi

Xorijdagi
tengdosh
6-bet

O'zbek qizi Koreya
vazirligining
bosh tadqiqotchisi



SHARAF LENTASI

INSON AZIZ, XOTIRA MUQADDAS EKANINI ESLATIB TURADI

Osmonga talpingan zaminga boqsam,
Bayroq suratida ranglanar Vatan.
Sharaf lentasini qadagan ko'ksim
Bugun tog'lardan ham bir qarich baland.

Bobom aytib bergan tumanli kunlar,
Hatto tushlarimga kirmaydi endi.
Qanotga aylangan qo'llarim bilan
Ucharman – parvozim tinmaydi endi.

→
2-betga
qarang

Xurshid ZIYO



2019-yil pandemiya davrida 10,6 ming nafar volontyorning xalqimiz uchun amaliy yordami keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etildi. Xususan, Xayriyalarni muvofiqlashtirish markazlarida 935 nafar volontyor ehtiyojmand aholi murojaatlarini qabul qilishga, 9,7 ming nafar yoshlar xayriya mahsulotlarini 500 mingdan ortiq xonadonlarga yetkazib berishga ko'maklashdi.


Bugun yurtimizda davlat organlarining vazifa va funksiyalarini volontyorlik orqali samarali va tejamlor shaklda amalga oshirish tizimi shakllandi. Har bir hududda Volontyorlar maktabi faoliyat yuritmoqda. 28 ta oliy ta'lim muassasasida "Volontyorlar markazlari" ham tashkil etildi. O'zbekistonda 99 ta doimiy faoliyat yuritadigan volontyorlik guruhlari mavjud. Ular ijtimoiy-siyosiy, xayriya, ta'lim, tibbiyot, ekologiya, media, psixologiya, hayvonlarni himoya qilish, sport, huquq va ijod yo'nalishlarida faoliyat yuritmoqda.

Yildan yilga volontyorlar safi kengaygani sari ularga ko'rsatilayotgan e'tibor ham oshib bormoqda. Joriy yilning 20-28-aprel kunlari Yoshlar ishlari agentligi hamda O'zbekiston volontyorlari assotsiatsiyasi "Biz birgamiz" shiori ostida O'zbekiston volontyorlarining ilk festivalini o'tkazgani ham fikrimiz dalilidir.

O'ZBEKISTONDA
ILK BOR 2019-YIL
2-DEKABRDA
"VOLONTYORLIK FAOLIYATI
TO'G'RSIDA"GI QONUN QABUL
QILINDI. QONUN VOLONTYORLIK
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH
VA AMALGA OSHIRISH
SOHASIDA KATTA
IMPULS BO'LDI.



BIZ BIRGAMIZ!



kompaniyalarda volontyorlik faoliyatini samarali yo'lga qo'yish bo'yicha fikr almashildi. "O'zbekistonda volontyorlikni rivojlantirish" mavzusidagi konferensiya volontyorlik faoliyatini yanada jadalantirishga xizmat qildi.

Festivalda ishtirok etgan 50 dan ortiq volontyorlik guruhlari "Ezgulik yo'li" labirintida birlashib, har xil loyihalarni muhokama qilishdi. Volontyorlik tashabbuslari bo'yicha videoroliklar tanlovi ham o'tkazilib, g'oliblar munosib rag'batlantirildi.

Tadbir ishtirokchilari "Bunday e'tibor har bir insonni o'z vazifasini siddiqildan bajarishga undaydi. Biz bu yerda kim ko'proq ezgulik, yaxshilik ulasha oladi, deb bellashdik. Bu biz uchun katta bayram bo'ldi. Festival sabab respublika doirasida do'stlar, yaqinlar orttirdik", deya e'tirof etishdi.

Tarixiy tajriba, buyuk ajdodlarimizning ibratli hayoti shuni tasdiqlaydiki, ijtimoiy faollik, fidoyilik va vatanparvarlik har qanday zamon va makonda qadrlangan hamda eng yuksak insoniy fazilatlar sifatida qaralgan. Shu bois yoshlarni bir joyga jamlagan haftalik fikr, tajriba almashish uchun keng imkoniyatlar maydoniga aylandi.

O'ZBEKISTON
VOLONTYORLARI

Shahruza SATTOROVA

SHARAF LENTASI

INSON AZIZ, XOTIRA MUQADDAS
EKANINI ESLATIB TURADI

Bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e'zozlash odamiylikning eng oliy mezonini, bag'rikeng va olijanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir.

Shu qadriyatlarini munosib davom ettirish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi va Yoshlar ittifoqi tomonidan 9-may - Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan qator targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda. Jumladan, 26-aprel - 10-may kunlari "Sharaf lentasi" aksiyasi; "Uch avlod uchrashuvlari"; "Inson aziz - xotira muqaddas" shiori ostida madaniy tadbirlar, davra suhbatlari, ochiq muloqot hamda ko'rgazmalar, ijodiy kechalar; "Vatanparvarlar" harbiy-sport musobaqasining respublika bosqichi; "Obodlik ko'ngildan boshlanadi!" obodonlashtirish tadbirlari; ijtimoiy tarmoqlarda vatanparvarlik yo'nalishida onlayn viktorinalar o'tkaziladi.

II Jahon urushi qatnashchilari, Vatan himoyasi yo'lida qurbon bo'lgan harbiy xizmatchilar oilalaridan xabar olinib, ixtisoslashtirilgan maxsus ta'lim muassasalari, "Mehribonlik", "Saxovat" uylari, "Oilaviy bolalar uylari" va Bolalar

shaharchalarida tahsil oluvchi yoshlar orasida xayriya tadbirlari, aksiyalar tashkil etilmoqda.

Aksiyalar doirasida aholi gavjum joylarda "Sharaf lentasi" yurtdoshlarimiz va xorijlik mehmonlarga taqdim etilmoqda.



YAGONA REYTING TIZIMI JORIY ETILADI

28-29-APREL KUNLARI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLIS SENATINING YIGIRMA BESHINCHI YALPI MAJLISI VIDEOKONFERENSA LOQA SHAKLIDA BO'LIB O'TDI.



Yalpi majlisi Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi. Majlisda senatorlar, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralar vakillari hamda milliy va xorijiy OAV vakillari ishtirok etdi.

Majlisda kun tartibidan o'rin olgan yigirmata masala ko'rib chiqildi.

Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2021-yil 31-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosatining hududlarda amalga oshirilishi bo'yicha reyting tizimini joriy etish to'g'risida"gi SQ-361-IV-sonli qarori ijrosi ham muhokama etildi. Masala yuzasidan **Yoshlar ishlari agentligi direktori, senator Alisher Sa'dullayevning axboroti eshitildi.**

Ma'ruzachi hisobot davrida erishilgan yutuqlarni sanab o'tar ekan, "Yoshlar balansi" shakllantirilib, "Yoshlar daftari" va "Yoshlar dasturi" platformalari ishlab chiqilgani, platformalar yanada takomillashtirilib, vazirlik va idoralarning 20 ga yaqin elektron bazalari bilan integratsiya qilinganini ta'kidladi. Daftarga kiritilgan yoshlarga "sms" xabarnomalar yuborish tizimi, hududlardagi Yoshlar markazlarida nogiron yoshlarga 10 dan ortiq ijtimoiy xizmatlarni qamrab olgan "Inklyuziv markazlar" faoliyati yo'lga qo'yilgani e'tirof etildi.

"Reyting tizimining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadida 14 ta hududda o'quv seminarlar tashkil etilib, 700 ga yaqin mas'ullar ishtiroki ta'minlandi. "Imkon" grant loyihasi asosida 400 nafarga yaqin imkoniyati cheklangan yoshlar o'qitilib, SMM hamda Grafik dizayn yo'nalishlarida 132 nafarining bandligi ta'minlandi. Ushbu tajriba asosida har yili 500 nafargacha nogiron yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun subsidiya ajratish tizimi joriy etilmoqda. "Bo'zatov

yoshlar ovozi" festivali esa baxshichilik, an'anaviy ijro, opera, estrada yo'nalishlarida mahallalardagi iqtidorli yoshlarni kashf etmoqda", - dedi Alisher Sa'dullayev.

Yoshlar ishlari agentligi direktori barcha hududlarda ham yoshlar bilan ishlash, ularning muammolarini hal etish ishlarini ijobiy deb bo'lmasligi, ayrim joylarda ishlar tizimli yo'lga qo'yilmagani, bu borada mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi hamda Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi bilan birgalikda joylarda o'rganishlar o'tkazilib, muammolarni hal etish choralarini ko'rilayotganini bildirdi.

Bu borada olib borilayotgan ishlar Senatning Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi majlislarida senatorlar, ekspertlar, mutasaddi vazirlik va idoralar vakillari, mahalliy kengashlar kotibiyatlari mudirlari hamda Yoshlar parlamenti a'zolari ishtirokida muhokama qilingan.

Senatning "Yoshlarga oid davlat siyosatining hududlarda amalga oshirilishi bo'yicha reyting tizimini joriy etish to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan **qo'mita raisi Baxtiyor Sayfullayevning ma'ruzasi ham tinglandi.**

Senat tomonidan yoshlarga oid davlat siyosatining hududlarda amalga oshirilishi bo'yicha reyting tizimi amaliyotga joriy etilgani, bu yoshlarning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishga, ular uchun keng imkoniyatlar yaratishga, chekka va olis hududda istiqomat qilayotgan yoshlar muammolarining hal etilishini monitoring qilishga yordam berishi ta'kidlandi. Shu asosda yoshlar masalalari bilan shug'ullanadigan idora rahbarlarining mehnati rag'batlantirildi va ularning ish tajribalari butun

respublikaga namuna qilib ko'rsatildi.

Baxtiyor Sayfullayev jarayonda yuzaga kelgan kamchiliklarga ham to'xtalib o'tdi. Reyting tizimining mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan seminarlar o'tkazilganiga qaramay, ayrim hudud mutasaddilari reyting tizimining tub mohiyatini tushunib-tushunmay

bajarmoqda. Agentlik quyi tuzilmalarida indikatorlar asosidagi reyting baholashga doir ishlar talab darajasida tashkil etilmagani, masala Xalq deputatlari mahalliy kengashlarida ko'rib chiqilmagani, ayrim mahalliy hokimliklar mas'ullari tomonidan Senatga noto'g'ri statistik ma'lumotlar taqdim etilish holati uchrangani, amaldagi tartibga ko'ra, hududlarda reyting tizimi asosida hududiy bosqichlarda tuman va shaharlar orasidan g'oliblarni aniqlash va ularni rag'batlantirish ishlarini hokimliklar hali yakuniga yetkazmagani tilga olindi.

"Yana bir muhim jihatga e'tiboringizni qaratmoqchiman, - dedi Baxtiyor Sayfullayev. - Bu-

gungi kunda yoshlarga oid davlat siyosatiga taalluqli amalda uchta reyting tizimi mavjud. Bular:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, yoshlar yetakchilari faoliyatini baholash;

Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga asosan, Yoshlar siyosatini baholash; Senat tomonidan joriy etilgan reyting baholash tizimi.

Reyting tizimlari maqsad va vazifalariga ko'ra bir-biriga juda o'xshash. Shu munosabat bilan ularni o'zaro muvofiqlashtirish hamda yagona onlayn baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Buning natijasida ortiqcha mehnat va vaqt tejaladi".

Muhokama yakunida Senatning muammolarni bartaraf etish bo'yicha qarori qabul qilindi.



Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,

"Yoshlar ovozi" muxbiri



ILM – YAGONA NAJOT!

"YOSH MASLAHATCHILAR" KENGASHI TASHKIL ETILDI

Yoshlar ishlari agentligi huzurida "Yosh maslahatchilar" kengashi tashkil etildi. Kengashning Respublika vakilligiga 27 nafar, hududiy vakilliklariga esa 56 nafar turli sohalarida katta yutuqlarga erishgan yoshlar tayinlandi.

Kengashning asosiy vazifasi yoshlar o'rtasida vujudga kelgan muammolarni tizimli aniqlash, shuningdek, ularga kerakli yechimlarni topib, amaliy, nazariy, huquqiy tomonlama yordam va ko'mak berish faoliyatini amalga oshirish hisoblanadi. "Ilm – yagona najot" shiori ostida faoliyat olib boradigan "Yosh maslahatchilar" kengashi safiga 16 yoshga to'lgan va 25 yoshdan oshmagan yoshlar jalb qilinadi.

Kengash o'z faoliyatini amalga oshirish davomida uning maqsad va vazifalarini qo'llab-quvvatlagan, amaliy yordam bergan, yoshlar tashkilotlarida uzoq yillik tajribaga ega insonlar uning "Faxriy a'zosi" bo'lishi mumkin.

Sardor SA'DULLAYEV



Uchqun AXTAMOV, Vobkent tumanidagi "Bozorjoyi" mahallasi yoshlar yetakchisi

O'zim moliya sohasi vakiliman. Mahallaga yoshlar yetakchisi bo'lib kelganimda dastlabki ish faoliyatimni 623 nafar yoshni turli toifalar asosida o'rganib, "Yoshlar balansi"ga kiritish, bandligini ta'minlashdan boshlagandim. Yoshlarni ishga joylayotganda sohadan qanday qilib va qancha daromad olish mumkinligiga alohida ahamiyat qaratdim.

Yoshlar bandligining davomi sifatida 18 nafar ishsiz, qishloq xo'jaligi ishlarini tushunadigan yoshlarga 10 sotixdan jami 1,8 gektar yer maydoni ajratib berildi. Yoshlarimizga yer ajratilgach, ularning bandligini ta'minladim, bo'ldi, deb "Yoshlar daftari"dan chiqarishga shoshilmadim. Ajratilgan yer maydoniga borib, yerning unumdorligi bilan qiziqdim.

Bilsam, suv yetib kelishi qiyin bo'lgan joylar ekan. Bu masalani hal qilishga kirishdim. Avval mahalla ahli, tadbirkorlari bilan maslahatlashdim. Ularning fikri bilan yoshlar uchun ajratilgan ekin yerlaridan samarali foydalanish, o'z vaqtida sug'orish maqsadida suv nasoslarini o'rnatadigan bo'ldik. Mahalliy tadbirkorlar homiyligida suv nasosi ham sotib olindi.

Yana bir muhim masala suv nasosini ishga tushirish uchun 1 kilometr masofadan elektr energiyasini yetkazib kelish bo'ldi. Masalani hal qilish uchun hokim yordamchisi bilan birgalikda tuman hokimi, 4-sektor rahbari, tuman elektr tarmoqlari korxonasi rahbari, mahalla raisi va Yoshlar ishlari agentligi Vobkent tuman bo'limi boshlig'iga murojaat qildik. Ular birgalikda bu muammoni hal qilib berishdi. Hozir o'z ehtiyoji va ichki bozorni to'ldirish maqsadida yer olgan barcha yoshlar kelishib, bir xil mahsulot, ya'ni qizil lavlagi ekishdi.

Shuningdek, tadbirkorlik qilish istagidagi 8 nafar yoshga "Har bir oila – tadbirkor" dasturi asosida 127,2 million so'm kredit mablag'lari ajratildi. Shundan bir nafariga intensiv baliqxonona, bir nafariga ikki qavatli issiqxonona, to'rt nafariga zotli qoramollar va ikki nafar yoshga mini issiqxonona olib berildi. "Yoshlar daftari"ga kiritilganlarning 5 nafariga subsidiya asosida qishloq xo'jaligi asbob-uskunalar ajratilib, 4 nafar yoshning to'lov-kontrakt pullari to'lab berildi.

Mahallamizda yoshlarning sport bilan shug'ullanishi uchun hududimizdagi 11-maktab stadionida tungi yoritkich chiroqlari yo'q edi. Hokim yordamchisi tashabbusi bilan bu muammo ham hal etilib, sport maydonchasiga chiroqlar o'rnatildi. Hozirgi kunda nafaqat yoshlar, balki nafaqadagi otaxonlar ham stadionga kelib, yoshlar bilan birgalikda futbol o'ynayapti.

Mahalla yoshlarining tashabbusi bilan stadion atrofida tomoshabinlar uchun o'rindiqlar o'rnatilyapti. Quruvchi-bunyodkorlar ham



Muhabbat TEMIROVA, Vobkent tuman "Bozorjoyi" mahalla fuqarosi:

– Mahallamiz yoshlar yetakchisi xonadonlarni o'rganish jarayonida men bilan ham suhbat o'tkazib, oilaviy ahvolimizdan xabar oldi. Suhbat jarayonida oilamizda 4 kishi yashashini, otam, otam va men ishsiz, singlim maktab o'quvchisi ekanini, oilamiz iqtisodiy tomondan qiyalib qolganini, tadbirkorlik bilan shug'ullanish ishtiyogim borligini, lekin moliyaviy ko'makka muhtojligimni aytdim. Tikuvchilik hunarim bor-u, tikuv mashinam yo'qligini tushuntirdim.

Shundan so'ng meni "Yoshlar daftari"ga kiritib, "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi hisobidan subsidiya asosida zamonaviy tikuv mashinasi olib berishdi. Hozir mahallamiz ahliga tikuvchilik bo'yicha xizmat ko'rsatyapman. Shu bilan oilamiz byudjetiga kuniga 70-80 ming so'm atrofida foyda keltiryapman. Bu daromaddan otam-onam ham xursand.

”

"YOSHLAR DAFTARI"GA
KIRITILGANLARNING 5 NAFARIGA
SUBSIDIYA ASOSIDA QISHLOQ
XO'JALIGI ASBOB-USKUNALARI
AJRATILIB, 4 NAFAR
YOSHNING TO'LOV-
KONTRAKT PULLARI
TO'LAB BERILDI.

o'zimizning mahalla yoshlari. Endi hududdagi tadbirkorlar va homiyilarni jalb qilgan holda stol tennisi maydonchasi tashkil etyapmiz. Buning uchun 11-maktab hududidan yer maydoni ajratilib, qurilish ishlari boshlangan.

Qilinayotgan ishlardan yoshlarimiz xursand bo'lyapti. Ular bo'sh qoldim deguncha sport maydonchasi qurilishidagi hasharga shoshiladi. O'z hududimizda kurash zali va "street work out" maydonchasi tashkil etish bo'yicha ham yoshlardan takliflar bo'lmoqda.

Yaqinda mahalla fuqarolar yig'ini binosi yangidan quriladi. Tuman hokimiga imkoni bo'lsa, bu binoni ikki qavatli qilib bunyod etilishini, ikkinchi qavatni yoshlar uchun IT markaz va kutubxonona qilish taklifini bildirmoqchiman. Bu masala ham tez kunlarda ijobiy yechimini topadi degan umiddaman.

DO'STONA SHAHARLAR

"Yuksalish" umummilliy harakati, UNICEF bolalar jamg'armasining O'zbekistondagi vakolatxonasi hamda Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida "Bolalar va yoshlar uchun do'stona shaharlar" tashabbusi amalga oshirilmoqda.

Tahlillar asosida Asaka, Qo'qon, Termiz, Zarafshon, Yangibozor, Bo'ston shaharlari "Bolalar va yoshlar uchun do'stona shahar" maqomini olishga nomzod sifatida tanlab olingan.

Kuni kecha loyiha doirasida hamkor tashkilotlar va hokimliklar o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risidagi memorandum imzolandi.

Tashabbus bolalar va yoshlarning ovozi, ehtiyojlari, ustuvor masalalari va huquqlari davlat siyosati, dasturlari hamda qarorlarining ajralmas qismi bo'lgan jamoalarni yaratishga qaratilgan shahar-qishloqlarning global harakatiga qo'shilishiga xizmat qiladi.

Muxbirimiz



“MUSHOIRA”

DAVOM ETMOQDA

Lobar QODIROVA



Adabiyot qudratli kuch. U insonlarni millati, irqi va tiliga qaramay, birlashtira oladi. Respublika miqyosida o'tkazilayotgan "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida "Mushoira" tanlovi ham borligi buning yaqqol misolidir.

Shu kunlarda hududlarda "Mushoira" tanlovining mahalla bosqichi bo'lib o'tmoqda. Jumladan, Qarshi shahridagi "Roguzar" mahallasida yoshlar yetakchisi O'g'li Arabova tashkil etgan tadbir yuqori saviyada bo'lib o'tdi. Yozuvchilar uyushmasining Qashqadaryo viloyati bo'limi hamkorligida o'tkazilgan kechada yoshlar o'zbek she'riyati hamda o'z ijodlaridan namunalari o'qildi.

Tanlovda ustoz ijodkorlar ishtirok etib, yoshlar ijodiga o'z baholarini berishdi. Tanlovning endigina mahalla bosqichi o'tkazilayotganiga qaramay, chinakam ijod bayramiga aylanib ketdi.

– Ijodkorlarning bir yerga to'planishi yangi san'at asarlarining yaratilishiga sabab bo'ladi, – deydi tanlovning 18 yoshli ishtirokchisi Umida Hamrayeva. – "Mushoira" bizga ilhom bag'ishladi. Tanlov shaffof va adolatli bo'ldi. Har bir ijodkor o'z qobiliyati va mehnatiga yarasha baholandi. Bu tanlov bizga o'z ustimizda yanada ko'proq ishlashimiz uchun motivatsiya berdi.

Shunday tanlovlardan yana biri Namangan tumani "Katta toshbuloq" mahallasida o'tkazildi. Tadbir mahalla yoshlari o'rtasida she'rxonlik, g'azalxonlik va kitobxonlik madaniyatini oshirish, ularda yaratuvchanlik qobiliyatlarining o'sishiga turtki bo'ldi. Tanlov yoshlar orasida musobaqa, raqobat emas, o'zaro do'stlik va tajriba almashish maydoniga aylandi.

Yosh iste'dod egalari O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limlari tomonidan faxriy yorliq, tashakkurnoma va kitoblar jamlanmasi topshirildi.



Aziz RAHMATOV,

Chilonzor tumani statistika bo'limi boshlig'i

SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI YIG'ISH

QAY TARTIBDA AMALGA OSHIRILADI?

Shaxsga doir ma'lumotlar respondentlar yashaydigan (turadigan) turar joylarni aylanib chiqish chog'ida yoxud mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan shu maqsadlar uchun beriladigan xonalardan respondentlar so'rovini o'tkazish hamda ro'yxatga olish varaqlarini to'ldirish orqali yig'iladi.

Shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish axborot xavfsizligini ta'minlash talablarini hisobga olgan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Respondentlar so'rovi davlat tilida o'tkaziladi. Davlat tilini bilmaydigan respondentlar ona tilida yoki erkin ravishda tanlangan muloqot tilida so'rovdan o'tkazilishi mumkin. Ro'yxatga olish varaqlari ro'yxatga oluvchi xodimlar tomonidan respondentlarning so'zlari asosida to'ldiriladi.

Aholini ro'yxatga olish vaqtida yashash joyida bo'lmagan yoki voyaga yetmagan respondentlar to'g'risidagi shaxsga doir ma'lumotlar ular uy xo'jaligining voyaga yetgan a'zolari tomonidan ma'lum qilinadi. O'ziga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilangan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar ularning vasiylari yoxud homiylari tomonidan ma'lum qilinadi.

Respondent ro'yxatga olish varag'idagi savollarga javob berishni rad etgan taqdirda ro'yxatga olish varagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridagi yoki mahalliy davlat hokimiyati organlaridagi mavjud ma'lumotlar asosida to'ldiriladi.

Aholini ro'yxatga olish dasturida nazarda tutilmagan savollar bo'yicha shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish taqiqlanadi.

177



IMKONIYAT

Xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) olgan yoshlarga imtihon topshirish xarajatlari to'liq qoplab beriladi.

Ariza beruvchi davlat xizmatlari markaziga kelib murojaat etgan taqdirda uning so'rovnomasi Davlat xizmatlari markazi xodimi tomonidan to'ldirilib, ariza beruvchi tasdiqlagandan so'ng 10 daqiqa mobaynida YAIDXP orqali murojaat etganda avtomatik tarzda Yoshlar ishlari agentligiga elektron shaklda yuboriladi.

Quyidagi shartlar to'liq bajarilganda, ariza beruvchiga mazkur reglamentda nazarda tutilgan kompensatsiya to'lab beriladi:

– imtihonlarning biri yoki bir nechtasi bo'yicha imtihon topshirish xarajati kompensatsiya qilinishi uchun to'planishi lozim bo'lgan yuqori ball (daraja)ning minimal ko'rsatkichi yoki undan yuqori natija qayd etilganda;

– maxsus sertifikat berilgan sanadan boshlab 180 kalendar kun o'tmasdan kompensatsiya to'lashni so'rab, ushbu reglamentda belgilangan tartibda murojaat qilganda;

– maxsus sertifikatda ko'rsatilgan imtihon natijasi haqiqiyli va to'g'ri Yashlar ishlari agentligi tomonidan tasdiqlanganda.

Murojaat qilish jarayonida ariza beruvchi kompensatsiyani olish uchun o'ziga qulay hududdagi "Xalq banki" filialini tanlaydi.

Yoshlar ishlari agentligi ariza beruvchining murojaati YAIDXP orqali tushgan paytdan boshlab 15 kalendar kun mobaynida maxsus sertifikatni verifikatsiyadan o'tkazadi.

Agar maxsus sertifikatning haqiqiyli verifikatsiya orqali aniqlashning imkoni bo'lmasa, Yoshlar ishlari agentligi imtihon tashkil etishga mas'ul vakolatli tashkilotga maxsus sertifikatning haqiqiyli so'rab so'rov yuboradi. Bunda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yuborilgan so'rovning elektron shakli (pdf formatda) idoralararo elektron tizimga joylashtirilganda, maxsus sertifikatning haqiqiyli tasdiqlatish muddati 30 kalendar kunga uzaytiriladi.

Muqaddam imtihonlarning bir turi bo'yicha imtihon topshirish xarajati kompensatsiyasini olgan ariza beruvchi imtihonlarning boshqa turi bo'yicha minimal ko'rsatkich yoki undan yuqori natija qayd etsa, unga ushbu reglament talablariga muvofiq kompensatsiya to'lab beriladi.

Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

- 1) imtihon topshirish xarajati to'langanini tasdiqlovchi to'lov kvitansiyasi (pdf formatda);
- 2) maxsus sertifikat (pdf formatda).



O'ZBEK QIZI KOREYA VAZIRLIGINING BOSH TADQIQOTCHISI



Shahribonu RAHMATOVA
suhbatlashdi.



Yoshlarning o'z istaklari bor, kimdir shifokor, uchuvchi, kimdir IT, yana boshqa sohani o'rganishni istaydi. Muhimi, ular o'z qarashlari, o'z "meni"ga ega. Tanlagan kasbini o'rganish uchun istalgan joyda tahsil olishi mumkin.

so'ng magistratura-ni o'qish uchun 7 ta davlatning 10 ta universitetiga hujjat topshirib, 5 tasiga grant olganman. Ularning orasida Koreya ham bor edi. Koreya sharqona, madaniyati bizga yaqinroq, rivojlangan hamda ta'lim sifati yaxshi davlat bo'lgani uchun oila a'zolarim bilan maslahatlashib, tanlagan edim.

- Bu yerda o'qish qiyinmi yoki talabalarga o'z darajasiga ko'ra dars beriladimi?

- Talabalardan juda qattiq o'qish talab qilinadi. Eplolmasangiz, kursdan kursga qolasiz, o'qishdan haydalisiz, qo'shimcha semestr o'qishingizga to'g'ri keladi. Necha yilda universitetni bitirish talaba va universitetning qo'lida. Kirgandan so'ng 4 yilning ichida bitirib ketishingiz kerak degan qoida yo'q.

- Talabalarga qanday imtiyozlar beriladi?

- Universitetlar chet el talabalariga imkoniyatlar yaratib beradi. Sizga ko'proq imtiyozlar, kontrakt pulidan chegirmalar, grantlar, qiyin nalgan oildan bo'lsangiz, stipendiyalar beradi. Xorijlik talabalardan aytarli foyda bo'lmasa-da, qo'llab-quvvatlash juda ham kuchli.

- Koreyada ta'lim kontraktlarini to'lash tartibi qanday?

- Bu yerda talaba o'z-o'zini qoplab o'qiy oladi. Har semestr-dagi baholaringizga qarab, keyingi semestrda o'qishga to'laydigan pulingiz uchun chegirmalar beriladi. O'tgan semestr-dagi baholaringiz qancha yuqori bo'lsa, bu semestr uchun shuncha kam pul to'laysiz yoki umuman to'lamaydiz. Ya'ni keyingi bosqichda yaxshiroq o'qish uchun arziqli sabab bor va shunga qarab harakat qilamiz.

- Darslar o'tilishi qanday tartibda tashkil etiladi?

- Chet el universitetlarida soha egasi bo'lishingiz uchun qo'yilgan majburiy va tanlab o'qishingiz mumkin bo'lgan fanlar bor. Aytaylik, men hozir elektrotexnika sohasi bo'yicha o'qiyman, shu bilan birga informatsion texnologiyalarga ham qiziqaman. Shu bois men boshqa fakultetdagi IT bilan bog'liq fanni ham o'qishim mumkin. Bu menga qiziqishlarimni rivojlantirishda, yangi mutaxassis bo'lib chiqishimda yordam beradi. Xuddi shunday men

bilan bitta guruhda o'qiydigan talaba boshqa fakultetdagi birorta fanni o'qiydi va u boshqacha mutaxassis bo'ladi. Shu orqali bitta sohani bitirib chiqadigan 30 ta talaba 30 xil qobiliyat bilan shakllanib chiqadi.

- Universitetingizning sizga yoqqan jihatlari nimada?

- Men shu universitetda o'qiyapmanmi, demak, uning bir bo'lagi hisoblanaman. Shu sabab hamma imkoniyat yaratib beriladi. Masalan, menga qanaqadir kitob kerak va bu kitob kutubxonada yo'q. Agar ariza yozib bersam, 15 kun ichida menga o'sha kitobni sotib olib berishadi. O'zinga kerak adabiyotni cho'ntagimdan emas, universitet fondi hisobidan ololaman. Yana bir misol, universitetimiz eng yaxshi jurnallarga obuna bo'lgan. Talabalar shu jurnallarni universitet kompyuterlari orqali istaganicha o'qish, maqola chop ettirish huquqiga ega. Quvonarlisi, barcha xarajatlarni universitet qoplab beradi.

- "Har yerning o'z tosh-u tarozisi bor" deyishadi. Koreyada yashash va o'qishning ham o'ziga yarasha muammo va qiyinchiliklari bo'lsa kerak?

- Adashmadingiz. Yangi odamlar bilan yashash, yangi joyga ko'nikish kabi qiyinchiliklar talabalarda stresslarni keltirib chiqaradi. Koreyada semestr 4 oy davom etadi va shu oylar ichida nechta fanni o'zlashtirishga to'g'ri keladi. Yana bir jihati - yotoqxonalarda ovqat tayyorlashga ruxsat yo'q va shu sabab o'zlari beradigan ovqatlarni tanovul qilishga majbur bo'lib qolasiz.

- Chet elda o'qish uchun birinchi talab nima deb o'ylaysiz?

- Xorijda o'qishga kirishning asosiy talabi bu - til bilish. Odamlar bizni, biz odamlarni tushunishimiz kerak. U yerda til bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lsangiz, xohlagan sohani o'rganib keta olasiz, deb qaraladi. Shu sabab til bilimni ko'rsatuvchi sertifikat juda muhim.

- Mazmunli va foydali suhbat uchun minnatdormiz. O'qish va izlanishlaringizda omad!

- Sizga va "Yoshlar ovozi" jamoasiga ham katta rahmat.

Mohina Toshtemirova bakalavr bosqichini Navoiy davlat konchilik institutida, magistraturani Pukyong Milliy universitetining energiya resurslari sohasida o'qigan. Hozir u Chungnam Milliy universitetining PhD bosqichida tahsil olish bilan birga Koreya energiya va tijorat Vazirligining "yashil energiyadan foydalanish samaradorligini oshirish" loyihasi bosh tadqiqotchisi hisoblanadi.

KUHLILAR G'OLIBLIKKA ERISHDI

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasida "Chet tillarni o'rganishning turlicha yondashuvlari: muammo va yechimlar" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani bo'lib o'tdi.

Bilimlar bellashuvi tarzida o'tkazilgan anjumanda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabalaridan tarkib topgan "PRESTIGE" hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi kursantlaridan iborat "RESCUERS" jamoalari tanishtiruv, kursantlar va talabalar hayotidan hajviy videolavhalar, muammoli vaziyat, erkin mavzuda sahna ko'rinishi shartlari bo'yicha o'zaro bellashdi.

Sovrinli o'rinni egallagan jamoalar hamda faol ishtirok etgan yoshlar diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Farhodjon XO'JAYEV,
FVV Akademiyasi katta o'qituvchisi

Zamon bilan hamnafas O'zbekiston yoshlari nafaqat yurtimizda, balki dunyo bo'ylab eng yaxshi dargohlarda tahsil olmoqda. Chet elda o'qish, o'zga yurtda yashash yoshlarni yanada kengroq va teranroq fikrlaydigan insonga aylantiradi. Bunday yoshlar qaysidir sohaning rivojlanishiga, ehtimol, yurtimizda yangi sohaning vujudga kelishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Janubiy Koreyada tahsil olayotgan Mohina Toshtemirova shunday yoshlardan biri. Tengdoshimizning xorijdagi ta'limi, yashash tarzi va kelgusi rejalari haqida qiziqdik.

- Bugungi kunda yoshlarning katta qismi chet elda o'qishni istashadi. Buning sababi nimada?

- Menimcha, bilim yurtlariga o'qishga kirish osonligi va imtihonlarsiz qabul qilinishi sabab bo'lsa kerak. O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari hamma yoshlarni qamrab ololmaydi, chunki yoshlar soni ko'p. Shuning uchun ko'pchilik yoshlar o'qishga kira olmaganidan so'ng vaqt yo'qotmasdan boshqa joyda bo'lsa ham, o'qishga harakat qiladi. Chetda o'qish orqali tajriba olish, til o'rganish, yurtimizda hali rivojlanmagan sohalar bo'yicha mutaxassis bo'lishni xohlovchilar ham bor. Deylik, hozir bizda qaysidir sohada o'qishning imkoni yo'q yoki butun O'zbekiston bo'yicha bitta institutda bittagina guruh bor, xolos. Xohlovchilarning hammasiga o'rin yetmagani sabab o'sha sohani boshqa davlatda o'qib kelishga talab kuchayadi.

- Nega aynan Koreyada o'qishni tanlagansiz?

- Koreyada o'qishni oldindan rejalashtirganman. Bakalavr bosqichini tugatganimdan





TIL BILIMI

Abduvohid HAYIT

Hozirgi o'zbek tilidagi olxo'ri, olcha, shaftoli kabi meva nomlari "olu" so'zi ishtirokida yasalgan. Mutaxassislar fikriga ko'ra, "olu" qadimgi fors (protoeron) tilidagi "älüg" arxetipiga borib taqaladi. Botanikada daraxtda o'sadigan, o'rtasida bir dona dagnagi bo'lgan mevalar lotincha nom bilan "prunus" deb ataladi. "Olu" ham ma'no jihatidan aynan "prunus"ga to'g'ri keladi.

Xo'sh, turkiy xalqlar bu xildagi mevalarni bilishmaganmi? Nega turk tilida ham forscha "olu" ishlatiladi? Shu kabi savollar tug'ilishi mumkin. Albatta, turkiy xalqlar ham mazkur oilaga mansub mevalarni yaxshi bilishgan, qadimgi turkiyda "olu" ma'nosida "ärok" ("o'rik") so'zi ishlatilgan. "Devonu lug'otit-turk"da "ärok" so'ziga "shaftoli, o'rik, olxo'ri kabi mevalarning umumiy nomi" deb izoh berilgan (DLT. T.Fan. 1960. I t. 99-bet). Ammo keyinchalik, afsuski, "ärok" ko'p holatlarda o'z o'mini "olu"ga bo'shatib berdi.

"Boburnoma"da "olu" mustaqil holatda hozirgi tilimizdagi "olxo'ri" ma'nosida qo'llangan. "Forscha-o'zbekcha lug'at"da ham "olu" ("ألو") - "olxo'ri" deb izohlangan. Endi mazkur "prunus", ya'ni "olu" yoki "ärok" oilasiga mansub mevalarga e'tibor qaratamiz:



OLUCHA - hozirgi tilimizda "olcha". Bu ism forscha "olu"ga turkcha "-cha" kichraytirish qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan. Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati" (bundan keyin mazkur lug'atni O'TEL deb ko'rsatamiz)da ham bu so'z shunday izohlangan. Fors tilida ham "olucha" ("ألوچا") ayni ma'noga ega.



OLVOLI - "O'zbek tilining izohli lug'ati" (O'TIL)da bu so'z ham shevada "olcha" ma'nosini bildirishi aytiladi. "Boburnoma"da "olu-bolu" shaklida yozilgan: "Men olu-bolu niholini kelturub ekturubmen, yaxshi olu-bolular bo'ldi va hanuz taraqqiyda edi" (B.T.:Sharq. 2002. 108-bet). Bobur mazkur jumladan olu-bolu, ya'ni olchani Kobulga keltirib ektirganini aytmoqda. Qayerdan keltirgan? Albatta, Movarounnahr, hozirgi O'zbekiston hududidan keltirganligi ehtimoli ko'proq. Balki, shuning uchun bu meva nomi oxiriga turkcha "-cha" qo'shimchasi qo'shilib, "olucha" deb atalgandir.

OLXORI - Sh.Rahmatullayev O'TEL da bu ism ham "olu" va forscha "yemoq, ichmoq" ma'nosidagi "xo'rdan" feli qo'shilishidan yasalgan, deb izohlaydi. Shuningdek, mazkur lug'atda bu ism "Hiro't olusi" ma'nosida - "olu" va "Hiro't" so'zlaridan "oluyi Hiri" shaklida yasalgan degan qarash ham borligi aytiladi. Bizningcha, bu qarash ishonarli emas.

QAROLI - bu so'z O'TIL-ga ham, O'TELga ham kimay qolgan. "O'zbek xalq shevalari lug'ati" (O'XSH)dan bu so'zning Qashqadaryo, Jizzax, Xorazm hududlarida qo'llanishini bilib olish mumkin. "Qaroli" deganda ham olxo'ri tushuniladi va u turkiy - "qora" hamda "olu" so'zlari qo'shilishidan "qora olu" shaklida yasalgan. Bunday duragay ism paydo bo'lishi sababi - aslida olxo'ri qadimgi turkcha nomi "qara ärok" bo'lgan (DTL. 99). Yuqorida biz forscha "olu" - qadimda turkchada "ärok" bo'lganligini aytdik. Keyinchalik "ärok" o'mini "olu" egalagach, "qara ärok" ham "qara olu" - "qaroli"ga aylangan.

"Boburnoma"da hozirgi Afg'oniston hududida o'sadigan emluk daraxti ham tilga olinib, uning mevasini turklar "qora yemish" deyishlari ham aytiladi: "Qo'rg'onning ikki tarafidagi rud (anhor, daryo) yoqalari tamom daraxttur, ko'pragi EMLUK yig'ochidir. Bu mevani ba'zi turklar QORA YEMISH derlar".

ZARDOLI - bu ism fors-tojikcha "sariq" ma'nosidagi "zard" va "olu" so'zlaridan yasalgan, ya'ni "sariq olu", "Devonu lug'otit-turk"dan esa bu mevaning qadimgi turkcha nomi ham - "sariq ärok" ekanligini ko'rish mumkin. Hozirgi o'zbek tilida qadimgi turkiydagi "ärok" faqat shu meva nomida "o'rik" shaklida saqlanib qolgan. "Zardoli" ko'proq Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo hududlarida "o'rik" ma'nosida qo'llaniladi.

GURDOLI - bu nom birotta o'zbekcha lug'atda uchramadi. Ehtimol, "gurdolu" fors-tojikcha "pahlavon, botir" ma'nosidagi "gurd" ("جُرْد") va "olu" so'zlaridan yasalgan bo'lishi mumkin. Chunki tojikcha lug'atlarda "gurdolu" - nav'i olui kalondona", ya'ni "katta dona olu navi" deb izohlangan. Shuningdek, o'zbek va tojik shevalarida "olxo'ri" ma'nosida "g'aynoli", "g'ayloni", "g'aydolu" kabi nomlar ham mavjud.



SHAFTOLI - bu so'z etimologiyasi haqida O'TELda keltirilgan izoh qoniqarli emas. Mutaxassislariga ko'ra, bu so'z o'rta fors tilidagi "sut" ma'nosidagi "shift" ("sift") va "olu" so'zlaridan yasalgan va "sutli olu" ma'nosiga ega. Qadimgi turk tilida esa bu mevani - "to'lo'g ärok" deb atashgan (DTL. 99).

"Devonu lug'otit-turk"da yana bir meva nomi - Jimkan ham keltirilgan bo'lib, unga "sariq olxo'ri" deb izoh berilgan. "Boburnoma"da Bobur limonni "limu" deb ataydi. "Devon"da ham "limkan", ya'ni "sariq olxo'ri" deganda, ehtimol, limon ko'zda tutilganidir. Yoki qadimgi turkiyda hozirgi tilimizdagi o'rik ikki nom bilan: ham "limkan", ham "sariq ärok" deb atalgan bo'lishi mumkin.

SILAYI RAHM HAQIDA

Yahyo ibn Salimdan rivoyat qiladilar:

"Makkada biz bilan birga Xuroson ahlidan bo'lgan bir kishi bor edi. U solih kishi edi. Odamlar unga o'z omonatlarini ishonib topshirar edilar.

Bir kishi unga o'n ming dirham pulini qoldirib, o'zi safarga ketdi. Omonat qo'ygan kishi safardan qaytgani u solih odam vafot etgan edi. Shu bois omonatchi u kishining oilasidan molini so'radi. Oila ahli bundan bexabar edilar.

Omonatchi olimlarga murojaat qilib, maslahat so'radi. Ular aytdilar: "Bizlar u xurosonlik birodarimizni jannat ahlidan deb umid qilamiz. Kechaning uchdan biri yoki ikkinchisi o'tgan onda Zamzam bulog'i yaqiniga kelgin va bu so'zlar bilan xabar bergin: "Ey falonchining o'g'li falonchi! Men omonat egasiman!" Shunday desang, javob eshitgaysan".

Haligi odam kelib, bu so'zlarni uch marta aytdi. Hech kim javob bermadi. U odam olimlarning huzuriga qaytib, voqeani bayon qildi. Ular dedilar: "Bizlar u birodarimizning do'zax ahlidan bo'lmog'idan qo'rqaymiz. Endi Yamanga bergin, u yerda bir vodi bor. Uni Barxut deydi. U yerda bir quduq bor, uni top va kechani uchdan biri yoki ikkinchisi o'tganida: "Ey falonchining o'g'li falonchi! Men omonat egasiman!" deb baqirgin".

U kishi Yamanga borib, vodiydagi quduqni topdi. Birinchi chaqiruvdayoq javob eshitildi. Shunda mol egasi afsuslanib: "Sho'ring qursin, seni bu yerga qaysi amallaring tushirdi? Axir, sen yaxshilik egasi eding-kul!" - dedi. Javob bo'ldi: "Xurosonda mening ahli baytlarim, qarindoshlarim bor edi. O'lgunimga qadar ular bilan bordi-keldi qilmay, uzilishib ketdim. Alloh Taolo meni shu azob bilan ushlab, bu manzilga tashladi. Ammo molingdan xavotir olma. Men o'g'limga aytib qo'yishga ulgurmagani edim. Uyimning falon yeriga ko'milgan, o'g'limga aytgini, molingni kavlab olib, o'zingga qaytaradi".

Omonat qo'ygan odam molini qaytarib oldi. Shu mol bahona silayi rahmining kuch-qudratini ham his qildi.

Said AHMADning "Saodat saroyining kaliti" kitobidan.

O'ZI SHE'RIGA O'XSHAGAN SHOIR

O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid Muhammad Yusufga "she'ri o'ziga, o'zi she'riga o'xshagan shoir" deya ta'rif bergan edi. Fikrimcha, bundan keyin ham bunday samimiyatga yo'g'irilgan fikrlar yana ko'plab yoziladi, qalbning tub-tubidan otilib chiqqan samimiy va haroratli so'zlar aytiladi.

Ayni bu fikrlar poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 194-umumta'lim maktabida shoir tavallu-

Madinabonu OCHILOVA, Uchtepa tumanidagi 194-maktab o'qituvchisi



dining 68 yilligi munosabati bilan "Muhammad Yusufni eslab..." mavzusida o'tkazilgan tadbirda ham yana bir bor ta'kidlandi. Unda shoir she'riyatining o'ziga xos jihatlari haqida so'z yuritilib,

slaydlar orqali ko'rsatib berildi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbir davomida o'quvchilar tomonidan shoirning dilbar she'rlaridan namunalar o'qildi, qo'shiqlar ijro etildi.



CAMBRIDGE

LEARNING CENTRE



“Cambridge” o‘quv markazi O‘zbekiston ta‘lim bo‘zoridagi yetakchi, tez rivojlanayotgan, innovatsion, dinamik kompaniya hisoblanadi. Deyarli 8 yillik tajribaga ega Cambridge Toshkentdagi eng yaxshi ingliz tili maktablardan biri hisoblanadi.



Toshkentda 8 ta filial ochib, kengayishda davom etmoqda. Yillar davomida turli ingliz tili kurslarini taklif qilib keladi va 45 000 dan ziyod tinglovchini muvaffaqiyatli o‘qitdi. Ayni paytda markazning barcha filialida har oyda 4500 nafarga yaqin talaba ingliz tilini o‘rganmoqda.

YUTUQLAR

“Cambridge” o‘quv markazi o‘quvchilari 2022-yilning bahor faslida chet elning nufuzli oliy o‘quv yurtlariga kirishga muvaffaq bo‘lgan. Umumiy hisobda 4 nafar o‘quvchi qariyb 1 million dollarlik grant yutib olgan. IELTS natijalariga kelsak, 5 nafar talaba umumiy 8.5, IELTS kurslarida tahsil olayotgan ko‘plab talabalar esa 7.0 va 8.0 ball to‘pladi. Markazda O‘zbekistondagi eng tajribali va IELTS ballari 9.0 gacha bo‘lgan ustozlar dars beradi.

Siz ham ustozlarni to‘g‘ri tanlab, o‘z ustingizda tinmay ishlasangiz, albatta, bundan ham yuksak natijalarga erisha olasiz. O‘z oldingizga aniq maqsad qo‘ying va harakatni bugundan boshlang!

IELTS™ Test Report Form

NOTE: Admissions to undergraduate and post-graduate courses should be based on the ACADEMIC Reading and Writing Modules. GENERAL TRAINING Reading and Writing Modules are not designed to test the full range of language skills required for admission. It is recommended that the candidate's language ability be re-assessed after two years' time.

Centre Number: UZ004 Date: 15/JAN/2022 Candidate Number: [REDACTED]

Candidate Details

Family Name: MURODOVA
 First Name: FARIDA
 Candidate ID: [REDACTED] Sex (M/F): F

Date of Birth: [REDACTED]
 Country or Region of Origin: UZBEKISTAN
 Country of Nationality: UZBEK
 First Language: UZBEK

Test Results

Listening: 9.0 Reading: 8.0 Writing: 7.5 Speaking: [REDACTED]

Administrator Comments: [REDACTED]

Administrative Signature: [REDACTED] Date: 28/1/2022

BRITISH COUNCIL

The validity of this IELTS Test Report Form is [REDACTED] months.



71-200-11-15



cambridge_learning_centre

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza
ABDULLAYEV

Muassis:
O‘zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O‘zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV

Musahhihlar:
Rashid XO‘JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va ishlatiladi. Tahririyat manzili: 101083, Toshkent, Matbuotchilar ko‘chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

“Sharaq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvchisi, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma to‘paq. Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan haradda. Buyurtma – G-455, Adadi – 10573. Bosishga topshirish vaqti – 21.00, Topshirildi – 20.00.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6